

SOG'LOM OILAVIY MUNOSABATLAR DIAGNOSTIKASI

Jabborova Shodiya Oybekovna

*Samarqand Davlat Universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti
Ijtimoiy ish yo'nalishi 4-bosqich talabasi
Xudoyberdiyeva Dilnoza San'atovna*

*Samarqand Davlat Universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti
Ijtimoiy ish yo'nalishi 4-bosqich talabasi
Qurbondurdiyeva Zamira Maqsudbekovna*

*Samarqand Davlat Universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti
Ijtimoiy ish yo'nalishi 4-bosqich talabasi
Rizvonkulov Aminjon Xamidjanovich*

*Samarqand Davlat Universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti
Ijtimoiy ish yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Maqolada oilaning jamiyatdagi psixologik ta'siri, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy, etnik omillarga bog'liq ekanligi, shuningdek, oilaviy ajrimlar so'lom oilaviy munosabat shakllanishining asosiy tahdidi ekanligi ta'kidlanadi. Tashqi omillar oilaviy nizolarning paydo bo'lisliga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda: ko'p oilalarning moddiy ahvolining yomonlashishi; turmush o'rtoqlardan birining (yoki ikkalasining) ish joyida ortiqcha ish bilan ta'minlanishi; turmush o'rtoqlardan birini normal ish bilan ta'minlashning iloji yo'qligi; uylarining uzoq vaqt yo'qligi; bolalarни uyushtirish uchun imkoniyatyo'qligi bolalar muassasasi va boshqalar. Ko'pchilik uchun ajralish dushmanlikdan, yoqtirmaslikdan, aldashdan va ularning hayotini qoraytirgan narsalardan xalos qiladi.

Kalit so'zlar: *oila, muammoli vaziyatlar, mojaro, pozitsiya, er-xotin, bolalar, ajralish, jamiyat, salbiy oqibatlar, kontrast, ota-on, qiyinchilik.*

Har qanday jamiyatning ma'naviy negizi-oila. Davlatning rivojlanishida oilaning mustahkam bo'lishi bevosita oilaning ijtimoiy rolining muhim ekanligidan dalolatdir. Sog'lom oilaviy munosabatlarning shakllanishi avvalo, jamiyatning ijtimoiy tartibini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Oilada shaxs voyaga yetadi, ongi, fikri, dunyoqarashi shakllanadi, hamda inson o'zini faqat oilada baxtli tinch-totuv maskan sifatida qabul qiladi.

Mamlakatimizda ham oilalarning ijtimoiy muommolarini yechish, farovonlikni ta'minlash orqali moddiy-ma'naviy qo'llab-quvvatlash bilan ularning psixologik himoya qilishimiz ham mumkin boladi. Xususan yoshlarga oid davlat siyosatida ham oilaviy hayotga oid muommolar, psixologik-pedagogik, huquqiy va boshqa masalalar yuzasidan maslahatlar berish tizimini rivojlantirish alohida qayd etib o'tilgani beziz emas.

Oila muammosi azaldan insoniyatning diqqat markazida bo'lib kelgan. Chunki oila mustahkamligi jamiyat faravonligining asosiy negizidir. Shu sababli Respublikamiz rahbariyati har bir xonadonning tinchligini, oilalarda farzandlarning baxtli, barkamol o'sishini ta'minlashga qaratilgan qator tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Psixologlar oilaviy janjallarni normal holat deb bilishadi. Qarama-qarshiliklar tufayli er-xotinlar bir-birlarini yomon ko'rishni boshlaydilar, hatto undan ham ko'proq ajralishadi. Shuning uchun har doim paydo bo'ladigan oiladagi nizolarni qanday hal qilish masalasi juda muhim bo'lib qoladi. Odamlar janjallahishi tabiiy, ayniqsa bu odamlar turmush o'rtog'i va mehribon sherik bo'lsa. Sizning munosabatlaringizda hech qachon janjal bo'lmaydi deb umid qilish ahmoqlikdir, chunki dunyoda bir xil ikkita odam yo'q. Siz qanchalik yaqin va sevikli bo'lishingizdan qat'iy nazar, har doim sizning fikringiz sherikingiz bilan mos kelmaydigan savollar mavjud. Odamlar odatda bahsli masalalarni qanday hal qilishadi? Ular qichqiradi, tanqid qiladi, qoralaydi, janjal qiladi, hatto idishlarni sindirib, yugurib keladi. Hech kimga sir emaski, muammolarni hal qilishning bunday usullari nafaqat sevuvchilarning munosabatlarida iz qoldiradi. Biroq, odamlar ba'zi bir tushunchalar bo'yicha kelisha olmasalar, hamma qichqiradi va qichqiradi. Ammo bitta haqiqatni yodda tutish kerak: qichqirganni eshitish mumkin emas! Shuning uchun janjal va qichqiriqdan so'ng, sheriklar bir-birlari bilan tinch ohangda muloqot qilishni boshlamaguncha, muammo hal qilinmaydi.

Oiladagi nizolarning turlari. Nizolarning eng keng tarqalgan tasnifi:

1. Konstruktiv to'qnashuvlar. Turli sabablarga ko'ra bunday to'qnashuvlar mavjud, ammo ularning yechimi ikkala uzumchiga qoniqish hissi tug'diradi, boshqacha qilib aytganda, bu o'zaro kelishmovchiliklarni hal qilish uchun kelishuvga aylangan. Bu yosh oilada yoki uzoq yillar tajribaga ega oilada nizo bo'ladimi, natijasi doimo gullab yashnaydi.

2. Yomon nizolar. Bunday to'qnashuvlar juda xavflidir, chunki ularning natijasi ikki tomonni qoniqtirmaydi va ko'p yillar davomida davom ettirishga, nikohlari bilan qoniqish hisini kamaytirishga, uzoq vaqt yoqimsiz depozit qoldirib ketishga majbur qiladi. Bunday to'qnashuvlarning tez-tez takrorlanishi ajralishga olib kelishi mumkin.

Oilaviy mojaro yuzaga kelishining sabablari bor ko'p miqdorda, chunki nikoh nafaqat qo'shma uyni saqlash va farzand ko'rish, balki ularning istaklarini ro'yobga chiqarish, ehtiyojlarini qondirish va baxtli yashash istagini ham o'z ichiga oladi. Erkak va ayol turmush qurishni davom ettirish orqali hayotlarini yaxshilashni xohlaydigan odamlar bo'lib qolmoqdalar.

Oilaviy muammolarni o'rganish maqsadida olingan test natijalaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, oilaviy muammolar o'zaro munosabatlardagi kelishmovchilik, o'zini tuta olmaslik, turmush o'rtog'idan mamnun bo'lmaslik, zerikarli hayot, oilaviy burchlarning taqsimlanishi, janjalkashlik, o'ta manmanlik, xulq-atvordagi nomukamallik, moddiy qiyinchiliklar, jizzakilik kabi oila a'zolariga xos xatti-harakatlar va xarakter xususiyatlaridan kelib chiqar ekan. Yana shu narsaga amin bo'ldikki inson

o`zi ideal insonni izlarkan. Ko`p holatlarda er-xotinlarning bir-biridan qoniqmaslik (ish vazifalaridan norozilik), gumonsirash, tanqid, tanbeh kabilar ham ko`pgina muammolarni keltirib chiqarishini bildik. Oila a`zolari oilada bir-birini o`zaro tushunmaslik, xarakter xususiyatlarining bir-biriga to`g`ri kelmasligida deb bilsalar, ayrimlarida ayol kishi noroziligi, tanbehlari erkakdan o`zini ustun qo`yishi deb bildilar. Bundan shu narsa ma'lum bo`ldiki, oilaviy muammolarning asl sababi oilalarda pedagogik va psixologik bilimlarning yetishmasligidadir. Buning uchun mahallalarda bu borada keng qamrovli ishlarni olib borish, mahalla yig`inlarini oilalar bilan hamkorlikda amalga oshirish, oilalarning mahallaga bo`lgan ishonchini, psixolog va pedagoglarga bo`lgan ishonchini oshirish masalalarini hal etish lozim.

Konstitutsiyamizning 63-moddasida "Oila jamiyatning asosiy bo`g`inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo`lish huquqiga ega", degan qoida mustahkamlab qo`yilgan.¹ Shunday bo`lsada ko`pgina oilalarda turli masalalarda muammolar bo`lib turadi. Bular:

- oilaviy muammolar azaldan olimlar tomonidan o`rganib kelingan muammolardan biri. Oilaviy muammolar yechimi ustida ko`pgina pedagoglar, psixologlar bosh qotirganlar. Buning isboti tarzida ular yaratgan metodikalarni, testlarni misol qilib keltirish mumkin. Ushbu metodikalar asosida oiladagi nizolar muammolar o`rganiladi, tashxislanadi va shu asosda o`rganilgan muammolarni bartaraf etish choralar ko`riladi;

- oilaviy muammolar oiladagi o`zaro munosabatlarning noto`g`ri yo`lga

- qo`yilishi bilan belgilanadi. Bunday munosabatlar ko`proq er-xotinlar o`rtasidagi o`zaro kelishmovchiliklarini, chiqisha olmaslik, muomalasizlik, kelisha olmaslik, o`zaro surmatning yo`qligi, oiladagi obro` kabilarda ko`rinadi. Shu bilan birga ota-onalar va farzandlar o`rtasidagi o`zaro bir-birini tushunmaslik holatlari, qaynona-kelin munosabatlaridagi kelisha olmaslikdagi holatlar oilaviy munosabatlaridagi kelisha olmaslikdagi holatlar oilaviy muammolarning eng katta qismini tashkil etadi;

- oiladagi muammolarning yana ko`p qismini moddiy yetishmovchilik tashkil etadi. Oilani moddiy jihatdan ta'minlay olmaslik er-xotin munosabatlarini

- yomon ahvolga solib keladi, xozirgi kunda ko`pgina ajrimlarning sababini moddiy yetishmovchilikdan degan xulosalar mavjud. Bunday muammolar farzandlar tarbiyasiga ham jiddiy ta`sir ko`rsatadi. Oiladagi janjallarning sababini tushunib yetgan bolada ota-onaga bo`lgan munosbat o`zgaradi va bu holat ham yana bir muammoni keltirib chiqaradi;

- tadqiqotlarda yana shunga amin bo`ldikki yosh oilalarda hayotga, oilaga bo`lgan munosabat o`zgacha. Ular hayotga, oilaga yengil qaraydilar. Ularda turmush tajribasining ortishida qaynona, qaynota va boshqa oila a`zolari bilan hamkorlikda yashashi muhim ekan. Oilada bo`ladigan muammolarni hamkorlikda hal qilish masalasida ularning ko`maklari zarur ekan;

- Oiladagi ko`pgina muammolarning sabablaridan yana biri bu oilalarning ko`pchilik (qaynota, qaynona, qaynilar, qaynisingil, ovsinlar) bilan yashashidir.

Oiladagi o'zaro ikir-chikir, chiqisha olmasliklar ko`pchilik bilan birga yashashdan kelib chiqadi;

- oilaviy muammolarning ko`pgina sabablari er xotin munosabatlariga borib taqaladi. Bunda jinsiy hayot masalasi alohida o`rin egallaydi. Ushbu masaladagi muammolar sharq mutafakkirlari asarlarida ham o`z aksini topgan;

- oilaviy muammolarda oila a'zolarining sog`lom turmush tarziga amal qilmasliklari ham sabab bo`ladi. Otaning yoki onaning, yomon salbiy odatlarga (ichish, chekish, giyohvandlik, yomon yo`lga kirish) odatlanishi hamda oiladagi turli kasalliklarning avj olishi masalalari ham oilada yetarlicha muammolarni keltirib chiqaradi;

- oiladagi tenglik, er-xotinlar hayotidagi tenglik huquqi barchaga ham birdek ma'qul kelmas ekan. Ayrim oilalardagi ayollarni kamsitish, mensimaslik, odam o`rnida ko`rmaslik, fikrlarini inobatga olmaslik holatlari muammolarni keltirib chiqaradi, shu bilan birga ayollarning xukmronligi ham muammolarga olib keladi.

Ushbu xulosalarga asoslanib quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqdik:

- oilaviy muammolar yechimi oiladagi sog`lom psixologik muxit yaratilishiga bog`liq;

- oilaviy muammolar yechimidan biri bu - oila a'zolarini yetarli darajada pedagogik – psixologik bilimlar bilan qurollantirishdan iborat;

- oilaviy muammolar yechimida muammoni keltirib chiqargan har ichki tomonning psixologik jixatdan o`zaro kelishuvini ta'minlash;

- oilaviy muammolar yechimida oila bilan mahalla hamkorligini yo`lga qo'yish eng muhim masalasidir;

- oiladagi shaxslararo tenglikni yuzaga keltirish oila mustahkamligi va barqarorligini ta'minlaydi.

Oilaviy munosabatlarning teng va o'zaro tushunishga asoslangan holda olib borilishi yosh avlodga to'g'ri samarali yetkazib berish qiyinchiliklar uchrab turibdi.

Bugungi yoshlarimiz esa yuqorida bayon etilganidek, 12—13 yoshlarida jinsiy balog`atga yetadilar va aksariyat hollarda oradan 7—8 yil o'tgandan so'ng, ya'ni qizlar 19—20 yoshda, yigitlar esa 21—22 yoshda oila quradilar. Bu vaqtida esa ular na iqtisodiy jihatdan, na ijtimoiy jihatdan va na psixologik jihatdan oilaviy hayotga tayyor bo'ladilar.

Oila hamjihatlikda yashashi o'zaro hurmat qaror topmog' lozim, lekin hozirgi paytga kelib nikoh ajrimlari soni 2021-yilda Respublikamizda 39 000 dan ortiq oilaviy ajrimlar qayd etildi. Respublika Oila ilmiy-amaliy markazi tomonidan nikoh ajrimlarining sabablari o'rganilganda, aksariyat holatlarda bu birinchi o'rinda er-xotinlarning o'zaro kelishmovchiliklari, fe'l-atvorning bir-biriga mos kelmasliklari, rashk, xiyonat, kelin bilan qaynona va boshqa yaqin qarindoshlarning chiqishmasliklari, erkakning zararli odatlarga berilib ketishi (ichkilikka, giyohvand moddalarga va shu kabi), moddiy qiyinchiliklar (asosan ernen ishlamasligi, mustaqil

oilani boshqara olmasligi), qudalarning to'ydan keyin o'zaro kelishmay qolishlari, ernen daraksiz ketib qolishi kabilar qayd etiladi.

Farg'ona viloyatida oilalarning buzilish sabablari o'rganib chiqilganda, 647 ta holatda farzandsizlik, 46 tasida xiyonat, 170 tasida uzoq vaqt birga yashamaslik, 2 698 tasida oilaviy kelishmovchiliklar, 311 tasida uchinchi shaxsning oilaviy munosabatlarga aralashuvi va qolgan holatlarda yoshlarimizning oila qurishga tayyor emasligi, sog'lig'iga e'tiborsizlik, yigitlarning oilani boshqarishni, ro'zg'orni moddiy ta'minlash, farzandlarni ma'nан hamda jismonan sog'lom qilib tarbiyalashni o'z burchlari, deb bilmasliklari, qizlarning esa uy bekasi, onalik vazifasini tushunmasligi, aksariyat hollarda qaynona va kelin o'rtasidagi mojarolar tufayli yuzaga kelayotganligi ma'lum bo'ldi.|| [4]

Oilaviy munosabatlardagi ziddiyatlarga internet tarmog'i va boshqa shu kabi omillar shuningdek yosh avlodni tarbiyalashda shunday qiyinchiliklar paydo bo'lmoqda.

Mafkuraviy-siyosiy ziddiyatlar ta'siri ko'lami kengayib yosh avlodni ham o'z domiga tortib bormoqda. Biror siyosiy tuzilma yoxud birlashma tashkilot, davlat haqida turli vositalar orqali o'zgartirishga intilish avj olmoqda.

Oilaviy hayotda shaxs o'zini daxlsiz his qilishiga katta to'siqlar paydo bo'lmoqda, bu turli ijtumoiy tarmoqlar, internet saytlari orqali yot g'oyalar tarqalib quyidagi omillarda namoyaon bo'lib boryapti.

- tug'ilishning kamayishi,
 - ajralishlar sonining ko'payishi,
 - ajralishlar salbiy oqibatining kishilar hayotiga ta'sirchanligini ortib borishi,
 - nikohsiz oilalarning ko'payishi
- va boshqa qator salbiy hodisalar yuz bera boshladи.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shoumarov G'.B. tahriri ostida. «Oila psixologiyasi», T.: «Sharq, 2000.
2. Davurova, G. (2020). Pedagogika oliy o'quv yurti talabalarining ijodiy faoliyatini shakllantirishda psixologik xizmatni tashkil etish. Архив Научных Публикаций JSPI.
3. Davurova, G. (2020). СЕМЕЙНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ИХ РЕШЕНИЕ. Архив Научных Публикаций JSPI.
4. Ta'lim muassasasida zo'ravonlikning oldini olish. Uslubiy qo'llanma / V. Adescalita, R. Josanu, I. Moldovanu, T. Epoyan tomonidan tahrirlangan - Kishinyov, 2017 .-- 128b.
5. Volkova E.N., Volkova I.V., Isaeva O.M. Bolalarga nisbatan zo'ravonlikning tarqalishini baholash // Ijtimoiy psixologiya va jamiyat. 2016. 7-jild. No 2. 19-34-betlar.